
TOG'LIQ MFY YOSHLAR YeTAKCHISIDAN YANGI LOYIHA!

Toshloq tumanidagi Tog'liq MFY yoshlar yetakchisi Azizbek Muhammadov tashabbusi bilan mahallada yoshlar ma'naviyatini oshirish, kitobxonlikni keng targ'ib qilish maqsadida kitobxon oilalar aniqlanib, ularga kitoblar sovg'a qilindi.

Mahallada yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish borasida turli tadbirlar o'tkazilib kelinmoqda. Hududda ko'chma kutubxona tashkillangan bo'lib, 300 dan ziyod turli mavzulardagi kitoblar bilan to'ldirildi. Bu orqali mahalla yoshlarining sevimli go'shasiga aylangan maskan fondi ko'plab qiziqarli kitoblar bilan boyitilgan.

"Kitobxon oila" loyihasiga ko'ra, 3 oy davomida eng ko'p kitob o'qigan Xo'jaxonovlar, Hakimovlar hamda Mavlonovlar oilasiga yoshlar yetakchisi tomonidan kitoblar sovg'a qilindi.

2024-07-04 09:53:48